



## ACTIVITIES OF MEDICAL COLLEGES IN THE FERGANA VALLEY REGIONS IN THE 1980s

*Feruzakhon Mutalipovna Karimova*

Lecturer, Fergana State Technical University

[mutalipovna.85@icloud.com](mailto:mutalipovna.85@icloud.com)

Fergana, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** medical college, secondary specialized education, nursing training, paramedic, midwife, educational and material base, practical training, Soviet education, archival sources.

**Received:** 19.04.26

**Accepted:** 20.04.26

**Published:** 21.04.26

**Abstract:** This article analyzes the activities of secondary specialized medical educational institutions in the Uzbek SSR in the 1980s based on archival materials. In particular, using the annual reports of the Namangan Medical College, Fergana City Medical College, and Kokand Medical College, the study examines their educational and material base, admission policies, staff composition, educational process, practical training, and воспитательная (educational) work. The findings show that these institutions played an important role in training mid-level specialists for the healthcare system during the Soviet period. However, insufficient material and technical resources, certain challenges in organizing practical training, and outdated curricula limited the quality of education.

## 1980-YILLARDA FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARIDA TIBBIYOT BILIM YURTLARI FAOLIYATI

*Feruzaxon Mutalipovna Karimova*

Farg'ona davlat texnika universiteti o'qituvchisi

[mutalipovna.85@icloud.com](mailto:mutalipovna.85@icloud.com)

Farg'ona, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** tibbiyot bilim yurti, o'rta maxsus ta'lim, hamshiralar tayyorlash, feldsher, akusherka, o'quv-moddiy baza,

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 1980-yillarda O'zbekiston SSRda o'rta maxsus tibbiy ta'lim muassasalarining faoliyati arxiv materiallari asosida tahlil qilindi. Xususan,

amaliy tayyorgarlik, sovet ta'limi, arxiv manbalari.

Namangan tibbiyot bilim yurti, Farg'ona shahar tibbiyot bilim yurti va Qo'qon tibbiyot bilim yurtining yillik hisobotlari negizida ularning o'quv-moddiy bazasi, qabul siyosati, kadrlar tarkibi, o'quv jarayoni, amaliy tayyorgarlik va tarbiyaviy ishlari yoritildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mazkur o'quv muassasalari sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda muhim o'rin tutgan. Biroq moddiy-texnika bazasining yetarli emasligi, amaliy tayyorgarlikni tashkil etishdagi ayrim muammolar va eskirgan o'quv dasturlari ta'lim sifatini cheklab turgan.

---

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕДИЦИНСКИХ УЧИЛИЩ В ОБЛАСТЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В 1980-Е ГОДЫ

*Ферузахон Муталиповна Каримова*

*Преподаватель*

*Ферганского государственного технического университета*

[mutalipovna.85@icloud.com](mailto:mutalipovna.85@icloud.com)

*Фергана, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** медицинское училище, среднее специальное образование, подготовка медсестер, фельдшер, акушерка, учебно-материальная база, практическая подготовка, советское образование, архивные источники.

**Аннотация:** В данной статье на основе архивных материалов анализируется деятельность средних специальных медицинских учебных заведений в Узбекской ССР в 1980-е годы. В частности, на основе годовых отчетов Наманганского медицинского училища, Ферганского городского медицинского училища и Кокандского медицинского училища освещаются их учебно-материальная база, политика приема, кадровый состав, учебный процесс, практическая подготовка и воспитательная работа. Исследование показывает, что данные учебные заведения играли важную роль в подготовке специалистов среднего звена для системы здравоохранения в советский период. Однако недостаточность материально-технической базы, определенные проблемы в организации практической подготовки и устаревшие учебные программы ограничивали качество образования.

**Kirish.** 1980-yillarda O‘zbekiston SSR sog‘liqni saqlash tizimida o‘rta tibbiy kadrlar tayyorlash masalasi davlat ahamiyatiga ega vazifalardan biri hisoblangan. Tibbiyot muassasalari tarmog‘ining kengayishi, qishloq va shaharlarda davolash-profilaktika xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi hamshira, akusherka, feldsher va feldsher-laborant kadrlarni muntazam tayyorlab borishni taqozo etgan. Shu ma’noda tibbiyot bilim yurtlari faqat ta’lim muassasasi emas, balki sog‘liqni saqlash tizimining muhim kadrlar bazasi vazifasini ham bajargan.

Tibbiyot bilim yurtlari faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan ularning o‘quv-moddiy bazasiga bog‘liq bo‘lgan. Namangan tibbiyot bilim yurti hisobotida qayd etilishicha, “1960-yilda 600 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan o‘quv binosi, 1974-yilda esa 400 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan yana bir o‘quv binosi qurilgan” va “mashg‘ulotlar kabinet va laboratoriyalarda kabinet tizimi asosida o‘tkazilgan”. Ushbu ma’lumotdan ko‘rinadiki, 1980-yillarga kelib Namangan tibbiyot bilim yurti ancha shakllangan infratuzilmaga ega edi [1].

Binolarning umumiy maydoni 12 905 kv.m bo‘lib, shundan 6 187 kv.m o‘quv-laboratoriya binolariga to‘g‘ri kelgan. Bu sovet davri o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun salmoqli ko‘rsatkich bo‘lsa-da, amaliy o‘qitish ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yetarli bo‘lmagan. Xususan, Namangan tibbiyot bilim yurtida 1983/84 o‘quv yilida kabinetlarni jihozlash uchun lingofon uskunalari, mulyajlar, miya bo‘laklari, limfa tizimi, orqa miya tuzilishi, travmatologiya va ortopediya, yurak-qon tomir tizimi kabi ko‘rgazmali qo‘llanmalar xarid qilingani ta’lim jarayonida amaliy-nazmiy vositalarga alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

Andijon tibbiyot bilim yurtida ham moddiy baza masalasi markaziy muammolardan biri bo‘lgan. 1983-yilda bu bilim yurtining yana bir yangi to‘rt qavatli o‘quv binosi ishga tushib, o‘quv binolarining umumiy maydoni 13 332 kv.m ni tashkil etgan. 45 ta o‘quv auditoriyasi, 29 ta kabinet va laboratoriyasi, rus tili uchun 2 ta lingofon kabineti tashkil etilgan. Demak, Andijon tibbiyot bilim yurtida ham ta’lim infratuzilmasini kengaytirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilgan.

Biroq moddiy baza bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolgan. Masalan, Farg‘ona tibbiyot bilim yurtida mos binolar mavjud emasligi sababli kinoapparat va videomagnitofonlar o‘rnatilmagan edi. Yana bir muhim muammo yotoqxonada 340 nafar o‘quvchi yashagan, holbuki “yotoqxonaga 800 nafardan ortiq o‘quvchi muhtoj” bo‘lgan. Buning ustiga yotoqxonada maydonning bir qismi hamshiralarning malakasini oshirish kurslari tomonidan egallab olingan. Bu holat tibbiyot bilim yurtlari kontingenti o‘sishi bilan moddiy imkoniyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi tibbiyot bilim yurtlari faoliyatini o‘rganishda arxiv materiallari va rasmiy hujjatlar asosiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Namangan, Farg‘ona va Qo‘qon tibbiyot bilim yurtlariga oid arxiv hujjatlari ularning o‘quv-moddiy bazasi, kadrlar tarkibi, qabul jarayoni va o‘quv faoliyati haqida bevosita va ishonchli ma’lumotlar beradi.

SSSR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi hujjatlari o‘rta maxsus tibbiy ta’lim tizimining umumiy siyosiy va tashkiliy asoslarini belgilab bergan bo‘lib, kadrlar tayyorlashga qo‘yilgan talablar va o‘quv jarayonini tashkil etish tamoyillarini yoritadi. O‘zbekiston SSR Ta’lim vazirligi materiallari esa ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda pedagogik faoliyat mazmunini ochib beradi [2].

Namangan va Farg‘ona viloyatlari davlat arxivlari materiallari hududiy xususiyatlarni, mavjud muammolarni va ularning yechimlarini o‘rganishda qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Ushbu manbalar asosida tibbiyot bilim yurtlarining o‘quv jarayoni, moddiy-texnika bazasi, kadrlar tayyorlash tizimi va tarbiyaviy faoliyati kompleks tarzda tahlil qilinadi.

**Muhokama va natijalar.** Namangan tibbiyot bilim yurtida 1983/84 o‘quv yili uchun qabul rejasi juda keng ko‘lamli bo‘lgan. Umumiy profildagi hamshiralar, bolalar muassasalari uchun hamshiralar, akusherlik, feldsherlik, feldsher-laborantlik, “Paxtalik-Ko‘l” sanatoriysi filiali hamda kechki bo‘limni qo‘shganda jami 795 o‘rin belgilangan. Bu o‘sha davrda Namangan bilim yurti hududiy emas, balki viloyatlararo ahamiyatga ega o‘quv yurti bo‘lganini anglatadi. Qabul jarayoni raqobatli kechgan. Jumladan, 1983-yil 14-iyul holatiga ko‘ra, 2496 ta ariza kelib tushgan. Bu 795 o‘ringa nisbatan uch barobardan ortiq talab mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq qabul qilinganlar soni 690 nafarni tashkil etgan va tanlovdan o‘ta olmagan 179 nafar abituriyentga ishga joylashishda yordam ko‘rsatilgan [3].

Farg‘ona shahar tibbiyot bilim yurtida ham qabul raqobati yuqori bo‘lgan. Kunduzgi bo‘limga 120, kechki bo‘limga 150 o‘rin rejalashtirilgan. 1986-yilda jami 510 ta ariza tushdi. Tanlov koeffitsiyenti 4,2 va 3,2 ni tashkil etgan. Biroq bu raqobat har doim ham sifatli saralashni ta’minlamagan, masalan, kimyo fanidan imtihonda 30 nafar abituriyentdan atigi 4–5 nafarigina imtihondan o‘ta olgan va attestatlarda qo‘yilgan baholar ko‘p hollarda abituriyentlarning haqiqiy bilim darajasiga mos kelmagan. Bu holat o‘rta maktab bitiruvchilari tayyorgarligi bilan tibbiyot ta’limi talablari o‘rtasidagi tafovutni namoyon qiladi.

Andijon tibbiyot bilim yurti hisobotida 1981/82–1983/84 o‘quv yillari bo‘yicha qabul, arizalar soni, bitiruv va kontingent ko‘rsatkichlardan o‘quvchilar sonining o‘sib borgani ko‘rinadi. Masalan, 1983/84 o‘quv yili boshida o‘quvchilar soni 1889 nafarga yetgan, bitiruvchilar esa 836

nafarni tashkil etgan. Bu raqamlar tibbiyot bilim yurtlarining ommaviy kasbiy tayyorgarlik markaziga aylanganini ko'rsatadi.

1983–1984 o'quv yilida Namangan tibbiyot bilim yurtini tamomlagan yosh mutaxassislarni hududlar kesimida taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta maxsus tibbiy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlash va ularni amaliyotga yo'naltirish tizimini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur hujjatga ko'ra, 1984-yilning mart–iyul oylarida bilim yurtini tamomlagan bitiruvchilar Namangan viloyati shahar va tumanlari, shuningdek respublika hamda qo'shni hududlardagi tibbiyot muassasalariga ishga yo'naltirilgan. Taqsimot turli mutaxassisliklar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, ular orasida akusherlar, feldsherlar, feldsher-laborantlar, umumiy profil hamshiralar hamda bolalar muassasalari hamshiralari alohida ko'rsatilgan. Bitiruvchilarning asosiy qismi Namangan viloyati hududlariga yo'naltirilgan. Ayniqsa, Namangan shahrida kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgani sababli bu yerga 7 nafar akusher, 5 nafar feldsher, 1 nafar feldsher-laborant, 118 nafar umumiy profil hamshira hamda 79 nafar bolalar muassasalari hamshirasi yuborilgan. Bu ko'rsatkichlar shahar tibbiyot muassasalari, ayniqsa shifoxonalar va bolalar muassasalari uchun hamshira kadrlariga talab yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Namangan tumani, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Chust, Pop, Zadaryo, Uchqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on va Norin tumanlariga ham turli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar taqsimlangan. Masalan, To'raqo'rg'on tumaniga 9 nafar akusher, 2 nafar feldsher va 6 nafar feldsher-laborant yuborilgan bo'lsa, Pop tumaniga 3 nafar akusher, 3 nafar feldsher va 3 nafar feldsher-laborant yo'naltirilgan. Bu esa qishloq tibbiyoti tizimida feldsherlik-akusherlik punktlari va laboratoriya xizmatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi [4].

Bitiruvchilarning bir qismi esa respublika va qo'shni hududlarga ham yo'naltirilgan. Jumladan, Andijon viloyatiga 7 nafar feldsher, 2 nafar feldsher-laborant, 11 nafar umumiy profil hamshira va 8 nafar bolalar muassasalari hamshirasi yuborilgan. Shuningdek, Farg'ona, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Buxoro, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari, Qoraqalpoq ASSR hamda qo'shni Osh va Xorazm viloyatlariga ham muayyan miqdorda tibbiy kadrlar taqsimlangan. Ayniqsa, bu hududlarga asosan umumiy profil hamshiralar yuborilgani kuzatiladi. Masalan, Xorazm viloyatiga 10 nafar, Sirdaryo viloyatiga 6 nafar, Toshkent viloyatiga 7 nafar, Qoraqalpoq ASSRga 7 nafar hamshira yuborilgan. Bu holat sovet davri sog'liqni saqlash tizimida o'rta tibbiy kadrlardan, ayniqsa hamshiralardan keng foydalanilganini va ularning respublika miqyosidagi tibbiy muassasalarni kadrlar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur ma'lumotlar Namangan tibbiyot bilim yurti o'rta tibbiy kadrlar tayyorlashda nafaqat viloyat, balki respublika darajasida ham muhim ta'lim muassasalaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. Bitiruvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi sovet davridagi markazlashgan kadrlar siyosati asosida amalga oshirilgan bo'lib, bu orqali qishloq va shahar tibbiyot muassasalarini zarur mutaxassislar bilan ta'minlashga harakat qilingan. Ayniqsa, feldsher-akusherlik xizmatlari va bolalar muassasalari uchun hamshira kadrlarini ko'plab tayyorlash orqali aholiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish tizimini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan [5].

Namangan tibbiyot bilim yurtida 1983/84 o'quv yili boshida 80 nafar shtat o'qituvchi mavjud bo'lgan. Shuningdek, o'rindosh o'qituvchilar soni 74 nafarni tashkil etib, shundan 25 nafari "Paxtalik-Ko'l" sanatoriy filialida faoliyat yuritgan. Bu, bir tomondan, ta'lim muassasasiga amaliyotchi shifokor va mutaxassislarni jalb qilish imkonini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kadrlar yetishmovchiligi mavjudligini ham anglatadi.

Namangan tibbiyot bilim yurtining qator o'qituvchilari "Sog'liqni saqlash a'lochisi" va "Maorif a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan. Bu o'qituvchilar tarkibining ma'lum qismi yuqori malakaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Demak, o'qituvchilar tarkibida tajribali va yosh pedagoglar o'rtasida muayyan uyg'unlik mavjud bo'lgan.

1986–1987-yillarda Qo'qon tibbiyot bilim yurtida 97 nafar shtatli o'qituvchi ishlagan. Ularning barchasi oliy ma'lumotga ega bo'lib, mutaxassisliklari egallab turgan lavozimlariga mos kelganligi rasmiy hujjatlarda qayd etilgan.

Ayniqsa ayol kadrlar ulushi diqqatga sazovor. Bilim yurtidagi o'qituvchilar va rahbar kadrlar tarkibining taxminan 75 foizini ayollar tashkil etgan. Bu tibbiyot ta'limida, xususan hamshiralik va akusherlikka ixtisoslashgan muassasalarda ayollar mehnatining ustuvorligini aks ettiradi [6].

Farg'ona tibbiyot bilim yurti hisobotlarida o'quv jarayonining mazmuni va hajmi batafsil keltirilgan. Masalan, 1986/87 o'quv yilida Farg'ona tibbiyot bilim yurtining hisobotda "o'quv rejasiga ko'ra jami 26 746 soat dars rejalashtirilgan bo'lib, shundan 8 414 soati nazariy, 18 332 soati amaliy mashg'ulotlardan iborat" deyilgan. Bu ko'rsatkich o'quv jarayonida amaliy tayyorgarlik ustuvor ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Andijon tibbiyot bilim yurtida 62 ta guruh bo'yicha o'quv soatlari taqsimotida nazariy bilimlarga ko'proq soat ajratilib, nazariya – 85 265 soat, amaliyot – 63 279 soat, jami – 148 544 soatni tashkil etgan. Biroq qishloq xo'jaligi ishlariga, xususan paxta terimiga jalb qilish tufayli o'quv soatlari qisqartirilgan. O'quvchilarni qishloq xo'jaligi ishlariga, xususan paxta terimiga jalb qilish munosabati bilan, vazirlik va partiya Markaziy Qo'mitasining 1984-yil 12-noyabrdagi

qarorlariga muvofiq o'quv soatlari 235 soatga qisqartirilgan. Shu asosda tegishli tartibga muvofiq soatlar taqsimoti qayta ko'rib chiqildi va tarbiyaviy ishlar uchun mas'ul bo'lgan xodimlar hamda VPK tomonidan ushbu davr uchun ish rejasi tuzilgan va bunday holat o'qish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu esa sovet davri ta'lim tizimida o'quv jarayonining iqtisodiy kampaniyalar ta'siriga tushib qolganini ko'rsatuvchi muhim dalildir [3].

Ayrim fanlar bo'yicha o'quv dasturlari o'quv yili davomida kechikib kelib tushgan. Bu holat ta'lim jarayonini rejalashtirish va fanlarni o'z vaqtida o'qitishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Shu bilan birga, o'quv muassasasi faoliyati SSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 1982-yilda tasdiqlangan tibbiy va farmatsevtik bilim yurtlari uchun amaldagi o'quv dasturlari ro'yxati asosida tashkil etilgan. Ta'lim muassasasida asosan barcha zarur o'quv dasturlari mavjud bo'lgan, biroq ayrim fanlar bo'yicha dasturlar mazmun jihatidan eskirib qolgan. Dasturlarning eskirishi turli mutaxassisliklar bo'yicha bir qator fundamental va klinik fanlarni qamrab olgan. Jumladan, farmatsevt mutaxassisligini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan lotin tili, biologiya va botanika fanlari bo'yicha mavjud o'quv dasturlari zamonaviy ilmiy yutuqlar va ta'lim talablariga to'liq javob bermagan. Bu esa farmatsevtlar tayyorlashda nazariy bilimlarning yangilanishi zarurligini ko'rsatadi. Chunki mazkur fanlar dorishunoslik, farmakognoziya va farmatsevtik terminologiyaning asosiy poydevorini tashkil etadi.

Sanitar-feldsher mutaxassisligini tayyorlash jarayonida ham ayrim asosiy tibbiy fanlar bo'yicha dasturlar eskirgani kuzatiladi. Xususan, anatomiya va fiziologiya, ichki kasalliklar hamda analitik kimyo kabi fanlar bo'yicha dasturlarning yangilanishga muhtojligi ta'lim mazmunini zamonaviy tibbiy bilimlar bilan muvofiqlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Bu fanlar sanitariya-epidemiologiya xizmati uchun kadrlar tayyorlashda muhim nazariy va amaliy asos hisoblanadi [2].

Akusherlik mutaxassisligi bo'yicha esa biologiya, genetika asoslari, gigiyena, nerv va ruhiy kasalliklar hamda ko'z kasalliklari fanlari bo'yicha o'quv dasturlari eskirgan. Bu holat akusherlik sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarning kompleks tibbiy bilimlarini shakllantirish jarayonida muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, genetika va gigiyena kabi fanlar tibbiyotning profilaktik yo'nalishlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgani bois ularning dasturlari muntazam ravishda yangilanib borishi talab etilgan.

Feldsherlik mutaxassisligi bo'yicha tahlil qilingan dasturlar ro'yxati yanada keng qamrovli bo'lib, unda biologiya, genetika asoslari, gigiyena, anatomiya, akusherlik va ginekologiya, ko'z kasalliklari, tish va og'iz bo'shlig'i kasalliklari, fizioterapiya, massaj va davolovchi jismoniy tarbiya, shuningdek nerv va ruhiy kasalliklar kabi fanlar bo'yicha dasturlar eskirgan. Bu esa feldsherlar tayyorlash tizimida tibbiyotning turli yo'nalishlarini qamrab oluvchi kompleks bilimlar

bazasini yangilash zarurligini ko'rsatadi. Chunki feldsherlar qishloq va chekka hududlarda tibbiy xizmat ko'rsatishda asosiy bo'g'in hisoblangan.

Bolalar hamshirasi mutaxassisligi bo'yicha ham genetika asoslari, anatomiya va fiziologiya, mikrobiologiya, bemorlarga umumiy parvarish hamda ichki kasalliklar, bemorlarga parvarish qilish va patologiya asoslari bilan bog'liq fanlar bo'yicha dasturlar eskirgan. Bu esa pediatriya sohasida tayyorlanayotgan o'rta tibbiy kadrlarning bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish uchun o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi [4].

O'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyatini hisobga olish shakllari SSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 1946-yilda tasdiqlangan bo'lib, respublikadagi o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyatida katta o'zgarishlar yuz berganligiga qaramasdan, ularni to'ldirish va takomillashtirish zaruriyati mavjud bo'lsa-da, 1980-yillarda ham amal qilgan edi.

Umuman olganda, mazkur holat sovet davrida tibbiy o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini markazlashgan tarzda tasdiqlash va amaliyotga joriy etish tizimi mavjud bo'lganiga qaramasdan, fanlar mazmunini doimiy ravishda yangilab borish muammosi saqlanib qolganini ko'rsatadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, tibbiyot sohasidagi yangi kashfiyotlar va amaliy tajribalarning tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida ayrim fanlar bo'yicha mavjud dasturlar qisqa vaqt ichida eskirib qolgan. Shu sababli tibbiy va farmatsevtik bilim yurtlarda ta'lim sifatini ta'minlash uchun o'quv dasturlarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish va zamonaviy talablarga moslashtirish muhim vazifalardan biri bo'lgan. Bu muayyan fanlar va bo'limlar bo'yicha ta'lim sifati o'sishini ko'rsatadi. Bunday holatlar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, o'quvchilarda kitob bilan ishlash ko'nikmasining yetishmasligi, doklinik amaliyot kabinetlarining yetarli darajada jihozlanmaganligi, amaliy mashg'ulotlar davomida asbob-uskunalarining yetishmasligi va o'quvchilarning mustaqil ishlash imkoniyatlarining kamligi past o'zlashtirish sabablari edi.

Amaliy tayyorgarlik va tibbiy ko'nikmalarni shakllantirish. Tibbiyot ta'limida amaliy tayyorgarlik asosiy o'rin tutgan. Andijon tibbiyot bilim yurtida amaliy tayyorgarlik uch yo'nalishda olib borilgan: o'quv amaliyoti, o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti va ishlab chiqarish (diplom oldi) amaliyoti.

Doklinik amaliyot maxsus jihozlangan kabinetlarda tashkil etilgan. o'quvchilar doklinik amaliyot davomida mulyajlarda turli tibbiy manipulyatsiyalarni mustaqil ravishda bajargan. Bu muassasalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun mulyajlar, maketlar va texnik vositalardan foydalanilganini ko'rsatadi [5].

Shu bilan birga, o'quvchilar hamshiralik postlarida, protsedura xonalarida, bog'lash xonalarida, laboratoriyalarda, dorixonalarda amaliyot o'tagan. Bu tizim amaliy mashg'ulotlarni tibbiy muassasalar bilan integratsiya qilishga qaratilgan edi.

Sovet davri tibbiyot bilim yurtlarida ta'lim faqat kasbiy tayyorgarlik bilan cheklanmagan, balki kuchli mafkuraviy va tarbiyaviy mazmunga ham ega bo'lgan. Farg'ona hisobotida o'quv yurti jamoasi "faqat bilimli hamshiralalar emas, balki siyosiy jihatdan savodli, tibbiy etika va deontologiya masalalarini mukammal o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashga" intilgani aytilgan. Shuningdek, tadbirlar rejasida targ'ibot, ateistik tarbiya va o'quvchilarning jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Namangan tibbiyot bilim yurtida ham partiya tashkiloti va mahalliy qo'mita o'qituvchilar hamda xo'jalik xodimlari uchun ma'ruza, oilaviy kecha, teatrga sayohat va "Davlat va din" mavzusida ma'ruzalar kabi tadbirlarni o'tkazgan. Bu turdagi tadbirlar tibbiy ta'lim muassasalarida mafkuraviy tarbiya tizimli tus olganini ko'rsatadi.

Qo'qon tibbiyot bilim yurti hisobotida esa intizom masalasiga alohida o'rin berilgan. Unda "O'quvchilar faoliyatining asosiy tamoyillari – mehnatni rejalashtirish, kun tartibiga rioya qilish, o'zini o'zi nazorat qilish va jamoaviylikdir" deyilgan. Shuningdek, "Darslar boshlanishidan kamida 10 daqiqa oldin bilim yurtiga kel", "Bilim yurtiga kelganingda – xalat kiy" kabi qoidalar orqali tibbiy etiket va tartib-intizom shakllantirilgan.

**Xulosa.** Arxiv materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1980-yillarda O'zbekistondagi tibbiyot bilim yurtlari sog'liqni saqlash tizimi uchun o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Namangan, Farg'ona va Qo'qon tibbiyot bilim yurtlari misolida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mazkur muassasalarda o'quv-moddiy bazani mustahkamlash bo'yicha muayyan ishlar olib borilgan, yangi binolar, kabinetlar, lingofon xonalari, mulyajlar va texnik vositalar joriy etilgan. Biroq kontingent o'sishi bilan bu baza ko'p hollarda yetarli bo'lmay qolgan.

Ikkinchidan, qabul jarayoni yuqori raqobatli bo'lganiga qaramay, abituriyentlarning tayyorgarlik darajasi, ayniqsa tabiiy fanlar bo'yicha, har doim ham talabga javob bermagan. Bu o'rta ta'lim bilan o'rta maxsus ta'lim o'rtasidagi uzviylik muammosini ko'rsatadi.

Uchinchidan, o'quv jarayonida amaliy tayyorgarlikka katta e'tibor berilgan. Doklinik va klinik amaliyotlar, ishlab chiqarish amaliyoti, siklik usul, mulyajlardan foydalanish va tibbiy muassasalar bazasida mashg'ulotlar tashkil etilishi mazkur tizimning kuchli tomonlaridan biri bo'lgan.

Toʻrtinchidan, tibbiyot bilim yurtlarida kasbiy tayyorgarlik mafkuraviy-siyosiy tarbiya bilan chambarchas bogʻlangan. Bu esa sovet taʼlim modelining umumiy xususiyati sifatida namoyon boʻladi.

Beshinchidan, kadrlar tarkibida ayollar salmogʻi juda yuqori boʻlgani tibbiy oʻrta maxsus taʼlim tizimi gender xususiyatlarini ham ochib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. “Oʻzbekiston SSR sogʻliqni saqlash tizimi 30 yilda (1917–1947)” toʻplami. – Toshkent: Oʻzdamnashr, 1948.
2. Bobojonov, A. Oʻzbekistonda tibbiy taʼlim muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi (1920–1960 yy.). – Samarqand: SamDU nashri, 2018.
3. Qodirov N. Sogʻliqni saqlash tizimi va tibbiyot kadrlarini tayyorlash tarixidan lavhalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2005.
4. Rahmatova M. XX asrning 50-yillarida Fargʻona vodiysida tibbiy xizmatni rivojlantirish masalalari // “Ilmiy izlanishlar jurnali”. – 2022. – №3. – B. 45–52.
5. Алимova Д. А. Развитие здравоохранения в Узбекистане (1945–1960 гг.). – Ташкент: Фан, 1982.
6. Юсупов Х. История медицинского образования в Узбекистане. – Ташкент: Медицина, 1974.